IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

USMON AZIM SHE'RIYATIDA PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV: NUTQIY TA'SIR VA KOMMUNIKATIV FUNKSIYALAR TAHLILI

Azizova Farmuda
https://doi.org/10.5281/zenodo.20111763

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yetuk namoyandalaridan biri Usmon Azim ijodi pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida nutqiy ta'sirchanlik, muallif va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabat, pragmatik maqsad va kontekst omillari o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida Usmon Azim she'riyatida qo'llangan lingvistik birliklarning ma'no ifodalash bilan bir qatorda pragmatik vazifa bajarishi, adresatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari yoritiladi. Maqola natijalari o'zbek adabiyotshunosligi va pragmalingvistika sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Usmon Azim, she'riyat, pragmalingvistika, nutqiy ta'sir, kommunikativ maqsad, kontekst, adresat, badiiy matn.

Аннотация: В статье рассматриваются прагмалингвистические факторы в поэзии одного из ярких представителей современной узбекской литературы Усмона Азима. Анализируются коммуникативные намерения автора, речевое воздействие поэтического текста, а также взаимоотношения между автором и адресатом. Особое внимание уделяется прагматическим функциям языковых единиц в поэтическом дискурсе и их роли в формировании смыслового и эмоционального воздействия. Результаты исследования способствуют углублённому изучению поэтического языка и развитию прагмалингвистического подхода в литературоведении.

Ключевые слова: Усмон Азим, поэзия, прагмалингвистика, речевое воздействие, коммуникативная цель, контекст, адресат, поэтический текст.

Abstract: This article analyzes the pragmalinguistic factors in the poetry of Usmon Azim, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The study focuses on the communicative intentions of the poet, the pragmatic impact of poetic language, and the interaction between the author and the reader. Special attention is paid to the pragmatic functions of linguistic units and their role in conveying meaning and emotional influence within the poetic text. The findings of the research contribute to the development of pragmalinguistic studies and the comprehensive analysis of poetic discourse.

Keywords: Usmon Azim, poetry, pragmalinguistics, speech impact, communicative intention, context, addressee, poetic text.

KIRISH

Bugungi tilshunoslikda matnni faqat strukturaviy va semantik jihatdan emas, balki uning kommunikativ hamda pragmatik xususiyatlari asosida tahlil qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, badiiy matn pragmalingvistik yondashuvda o'rganilganda, muallif nutqining ichki ta'sir kuchi, o'quvchiga qaratilgan maqsadi va matn yuzaga kelgan kontekst bilan bog'liq jihatlar yanada yorqin namoyon bo'ladi. Bu jarayonda so'z va iboralar nafaqat ma'no tashuvchisi, balki muayyan nutqiy niyat va hissiy ta'sir vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois pragmalingvistika badiiy adabiyot tilini chuqurroq anglash, muallif va o'quvchi o'rtasidagi yashirin muloqotni ochib berishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida muallif shaxsiyati, uning dunyoqarashi va estetik qarashlari nutqiy strategiyalar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda shoir tanlagan til birliklari faqat estetik vazifa bajarib qolmay, balki ma’lum pragmatik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Usmon Azim ijodi ana shunday ko‘p qatlamli badiiy nutqi, chuqur falsafiy mazmuni va o‘quvchiga kuchli ta’sir ko‘rsatish xususiyati bilan ajralib turadi. Shoir she’rlarida nutq subyekti va adresat o‘rtasidagi yashirin dialog, emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo‘llanishi kuzatiladi.

Hozirgi paytgacha Usmon Azim she’riyati asosan adabiy-tanqidiy, poetik va stilistik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, uning asarlarini pragmalingvistik yondashuv asosida tizimli o‘rganish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi Usmon Azim she’riyatida pragmalingvistik omillarning namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash, poetik matndagi til birliklarining kommunikativ-pragmatik vazifalarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida pragmalingvistik tahlil, kontekstual yondashuv va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy matnni pragmalingvistik asosda o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pragmatika fanining shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G‘arb falsafiy tafakkurida yuzaga kelgan pragmatizm oqimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalish vakillari hisoblangan Ch. Pirs, U. Djeyms, D. Dyui hamda Ch. Morris kabi olimlarning falsafiy qarashlari pragmatikaning nazariy asoslarini belgilab berdi. Mazkur olimlar til va tafakkur, belgi va ma’no, muloqot va inson faoliyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni pragmatik yondashuv asosida talqin etdilar.

Dastlab pragmatika tushunchasi semiotik tadqiqotlar doirasida, xususan, lisoniy vaziyatning strukturaviy va tarkibiy jihatlarini dinamik, jarayonli aspektda o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarda qo‘llanila boshladi. Bu bosqichda pragmatika asosan so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar, nutqiy faoliyatning maqsadi hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan omillarni tahlil etishga yo‘naltirilgan edi. Shunday qilib, til birliklari faqat shakliy yoki ma’nodosh jihatdan emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi nuqtayi nazaridan ham o‘rganila boshlandi.

“Pragmatika” atamasining ilmiy muomalaga kiritilishi amerikalik olim Charlz Morris nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u ushbu tushunchani semiotika nazariyasining muhim tarkibiy qismi sifatida asoslab berdi. Ch. Morris Ch. Pirsning belgi haqidagi qarashlarini rivojlantirgan holda, semiotikani lisoniy belgilarni o‘rganuvchi fan sifatida uch asosiy bo‘limga ajratishni taklif etdi. Uning tasnifiga ko‘ra, sintaktika lisoniy belgilar o‘rtasidagi formal munosabatlarni, semantika belgilar bilan ularning ifodalagan ob’ektlari o‘rtasidagi aloqani, pragmatika esa til belgilarining so‘zlovchi va tinglovchi bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etadi.

Mazkur yondashuv pragmatikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratib, tilshunoslikda muloqot jarayonini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga keng imkoniyatlar ochdi. Natijada pragmatika til birliklarining real nutqiy vaziyatda qanday ishlatilishi, nutq ishtirokchilarining maqsadi, niyati va ijtimoiy omillarning tilga ta’siri kabi masalalarni tahlil etuvchi muhim ilmiy soha sifatida qaror topdi.[1]

METODOLOGIYA

[1] Maxmudjonova F. Pragmatik adabiyotshunoslik fan sohasi sifatida: mutolaa fenomenologiyasi misolida. International scientific journal. – B. 310.

Tadqiqotda pragmatik adabiyotshunoslik va badiiy pragmatika sohasidagi nazariy adabiyotlar tizimli tarzda tahlil qilindi. Turli olimlarning qarashlari qiyosiy-tahliliy usul yordamida solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Badiiy matnlar kontekstual va pragmatik tahlil orqali o‘rganilib, ularning kommunikativ, estetik va funksional xususiyatlari o‘rganildi. Shu metodologik yondashuv maqolaning ilmiy asosini mustahkamlab, badiiy matnning pragmatik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pragmatik adabiyotshunoslik va badiiy pragmatika o‘rtasidagi metodologik farqlar aniq seziladi. Pragmatik adabiyotshunoslik umumiy nazariy yondashuv sifatida adabiy jarayon, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni keng doirada o‘rganadi. Badiiy pragmatika esa matnning lisoniy xususiyatlari va kontekstga bog‘liq pragmatik ma’nolarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot shuningdek shuni ko‘rsatdiki, matnning pragmatik tahlili kontekstual, estetik va kommunikativ omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilsa, uning chuqurroq tushunilishini ta’minlaydi.

Usmon Azim o‘zining Shavkat Rahmon, Xurshid Davron,Rauf Parfi kabi safdoshlari bilan yelkama-yelka turib zindondagi adabiyotni ozodlikka chiqaradilar.Xalqchil shoir butun vujudiga qadim bobolarining ruhini singdirgan holda yangilanayotgan zamonda izlanadi, yangidan yangi shakllar topadi. Usmon Azim she’riyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, shoir butun insoniyatning quvonch-u tashvishlarini, ichki kechinmalarini, dard-u hasratlarini, hamma-hammasini ruhiyatga singdirib, so‘zlarni ohangrabodek tizib chiqadi. Chindan ham baxtsizlikni his qilmagan odam baxtni, mehnat mashaqqatini bilmagan odam farog‘atni, azobni bilmagan odam shodlikni his qila olmaydi[2].

Endi Usmon Azimning quyidagi she’rini chuqur filologik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz, uning badiiy-estetik xususiyatlari, nutqiy ta’sir kuchi hamda kontekstual ma’nolari o‘rganiladi. Shu orqali she’rning kommunikativ funksiyalari va muallif niyati ilmiy asosda aniqlanishi ko‘zda tutiladi.

Etiging qizildir, ro‘moling qizil —

Boryapsan ikkita sha’n shafaq aro:

Biriga betugun o‘ralgan yuzing,

Biri jonsarakdir — poyingda fido[3].

She’rning boshida “etiging qizildir, ro‘moling qizil” misralarida leksik-semantik vositalar orqali rang tasviri berilgan bo‘lib, qizil rang sevgi, ehtiros va sadoqat ramzi sifatida ishlatiladi. “Boryapsan ikkita sha’n shafaq aro” ifodasi esa metafora va konnotativ ma’no vositasi sifatida hayotning ikki go‘zal lahzasi yoki sevgining murakkab tabiati sifatida talqin qilinadi.

Pragmatik nuqtai nazardan, she’r so‘zlovchi va tinglovchi (o‘quvchi) o‘rtasidagi kommunikativ akt sifatida tahlil qilinadi: “Biriga betugun o‘ralgan yuzing, biri jonsarakdir — poyingda fido” misralari kontekstual va funksional-pragmatik jihatdan o‘quvchiga anglash mazkur she’r parchasida lirik subyektning ichki kechinmalari va ruhiy iztirobi markaziy semantik yadro sifatida namoyon bo‘ladi. “Seni ko‘rolmayman qaytib hech qachon” misrasi modal ma’noga ega bo‘lib, unda qat’iylik va qaytmaslik mazmuni ifodalanadi. Bu yerda inkor shakli orqali lirik holatning fojiali xarakteri kuchaytirilgan. “Yutganin qaytarmas ko‘cha —

[2] Urinboyeva S. Usmon Azim she’riyatidagi ba’zi ramzlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Iqro, 2023. – B. 247.
[3] Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.

yalmog‘iz” ifodasi esa personifikatsiya va metafora vositasida berilib, makon obraziga salbiy, yovuz konnotatsiya yuklaydi.

“Hatto qalbimdagi eng yuksak osmon, Bunday shafaqzorni topolmas hargiz” misralarida giperbola va ramziy obrazlar orqali yo‘qotish hissining ko‘lami kengaytiriladi. “Osmon” va “shafaqzor” birliklari poetik semantika nuqtayi nazaridan ideal, yetib bo‘lmas ma’naviy holatni ifodalab, ularning inkor shaklida kelishi lirik subyektning ruhiy bo‘shlig‘ini ochib beradi.

Keyingi bandda “qismat”, “armon”, “ruh”, “tanu jon” kabi birliklar abstrakt leksika qatlamiga mansub bo‘lib, she’rning falsafiy-estetik yo‘nalishini belgilaydi. “Behuda titranar ruhu tanu jon” misrasida parallellizm va sintaktik uyg‘unlik vositasida ruhiy beqarorlik holati kuchli ta’sir bilan ifodalanadi.

Pragmatik jihatdan, she’r o‘quvchiga bevosita ta’sir ko‘rsatishni maqsad qiladi. “Ikki shafaq aro bir yorug‘ jahon” ifodasi esa yakunlovchi metafora sifatida she’rning asosiy g‘oyasini umumlashtirib, yo‘qotilgan baxt va qaytmas lahza konseptini ifodalaydi. Umuman olganda, mazkur she’r parchasida leksik-semantik, stilistik va pragmatik vositalar uyg‘unlashgan holda qo‘llanib, lirik subyektning ichki holati va fojiali ruhiy hissini chuqur ochib berishga xizmat qilgan.

Uning “Chumoli haqida nutq” she’rida aynan bugungi kunning qorin uchun yashaydigan insoni obrazi ramziy gavdalantirilgan:

“Mehnatkash” deb olganing unvon,

Shoirlarning g`arib xayoli.

Mening esa, azaldan ayon,

Nafratim bor senga, chumoli.

G`ivirlaysan. Terga botasan,

Tirikchilik solar ne ko`yga.

Nima ko`rsang, uyga tortasan

– Uyga… Uyga… Qorong`u uyga[4].

She’rda nutq subyekti sifatida lirik “men” maydonga chiqadi va u voqelikka nisbatan faol, tanqidiy pozitsiyani egallaydi. Lirik qahramon chumoli obraziga murojaat qilsa-da, bu murojaat real hasharotga emas, balki jamiyatda “mehnatkash” sifatida ideallashtirilgan, biroq faqat tirikchilik doirasida yashovchi inson tipiga qaratilgandir. Shu jihatdan chumoli obrazining pragmatik mohiyati ramziy xarakter kasb etadi.

She’rning kommunikativ maqsadi o‘quvchini oddiy mehnatkashlik tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga undash, ongli hayot va erkin tafakkur masalasini kun tartibiga olib chiqishdan iborat. Muallif chumolini madh etish an’anasini inkor etib, unga nisbatan salbiy baho beradi va shu orqali jamiyatdagi passivlikni tanqid qiladi. Nutqda baholovchi va ekspressiv birliklar faol qo‘llangan. “Nafratim bor senga” kabi ochiq salbiy munosabat bildiruvchi ifodalar lirik qahramonning hissiy holatini kuchaytiradi va muallif pozitsiyasini aniq namoyon etadi. Bu holat pragmalingvistik jihatdan adresatga kuchli ta’sir o‘tkazish vazifasini bajaradi. Takror va pauzalar ham muhim pragmatik yuklama kasb etadi. “Uyga… Uyga… Qorong‘u uyga” shaklidagi takror

[4] Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.

chumoli obrazining harakat doirasi torligi, uning hayotining bir yoqlamaligini kuchli emotsional ta’sir orqali ochib beradi.

She’r pragmalingvistik jihatdan keskin baholovchi, tanqidiy va ta’sirchan nutq namunasi bo‘lib, unda muallif til vositalari orqali o‘z ijtimoiy-falsafiy munosabatini yashirmay, bevosita ifodalaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Usmon Azim she’riyatini pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali zamonaviy o‘zbek badiiy tafakkurida tilning kommunikativ va ta’sirchan imkoniyatlarini ochib berishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, shoir she’rlarida til birliklari nafaqat estetik va semantik vazifa bajaradi, balki muayyan pragmatik maqsad — o‘quvchiga hissiy, ruhiy va intellektual ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham amalga oshiradi. Bu esa Usmon Azim ijodini faqat poetik emas, balki kommunikativ jarayon mahsuli sifatida ham baholash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Usmon Azim she’riyatida nutq subyekti va adresat o‘rtasidagi yashirin dialog yetakchi o‘rin tutadi. Shoir ko‘pincha ramziy obrazlar, metafora, takror, baholovchi leksika va emotsional-ekspressiv vositalar orqali o‘quvchini bevosita muloqotga tortadi. Xususan, “Chumoli haqida nutq” she’rida chumoli obrazi pragmatik jihatdan jamiyatdagi faqat tirikchilik bilan cheklangan, ongiy va ma’naviy faolligi sust inson tipining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu obraz orqali muallif ijtimoiy passivlik, ruhiy qaramlik va maqsadsiz mehnatni keskin tanqid qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, pragmalingvistik yondashuv badiiy matnning yashirin qatlamlarini ochishda samarali metod hisoblanadi. Ayniqsa, Usmon Azim she’riyatida til birliklarining kontekstga bog‘liq pragmatik ma’nolari, baholovchi va ta’sirchan funksiyalari aniq namoyon bo‘ladi. Shoir nutqida salbiy yoki ijobiy baho berish, hissiy zo‘riqish, inkor va fojialilik kabi holatlar o‘quvchi ongida kuchli rezonans uyg‘otishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot Usmon Azim she’riyatining pragmalingvistik jihatdan boy va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatdi. Olingan xulosalar o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy matnni pragmalingvistik asosda o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda kelgusida zamonaviy she’riyatni kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxmudjonova F. Pragmatik adabiyotshunoslik fan sohasi sifatida: mutolaa fenomenologiyasi misolida. International scientific journal, 2024.
2. Urinboyeva S. Usmon Azim she’riyatidagi ba’zi ramzlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Iqro, 2023.
3. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. G‘aniyev I. Zamonaviy o‘zbek she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2021.
5. www.ziyouz.com